

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227




# IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in  
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 8

2026



Founded in 2024



[publishscience.uz](http://publishscience.uz)



[publish\\_science\\_journal@mail.ru](mailto:publish_science_journal@mail.ru)



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS



## **QADIMGI XORAZMDA DIN VA MADANIYATNING URBANIZATSIYA JARAYONLARIGA TA'SIRI**

**Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li**

Ma'mun universiteti, dotsent (PhD).

e-mail: [baxtiyarov\\_sirojbek@mamunedu.uz](mailto:baxtiyarov_sirojbek@mamunedu.uz) ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-6596-5975>

### **Annotatsiya.**

Qadimgi Xorazmda bir qancha omillarning o'zaro ta'siri shaharlarning shakllanishi va urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishiga olib kelgan. Shunday omillardan biri sifatida din va madaniyatning rivojlanishini alohida ta'kidlash lozim. Xorazm vohasida qadimgi davrlardan boshlab diniy e'tiqod va madaniyat markazlari aholini o'ziga jalb etib, urbanizatsiya jarayonlarining rivojlanishiga hissa qo'shgan. Bunday maskanlar diniy vazifasi bilan bir qatorda, aholi uchun muhim madaniy markazlar vazifasini ham bajargan. Shu bilan birga, shaharlar hududida, ayniqsa chegara shaharlarida ibodatxonalar bunyod etilgan. Shaharlarning kengayishi va rivojlanishi ibodatxonalar qurilishi jarayoniga ham bevosita ta'sir ko'rsatgan.

**Kalit so'zlar:** Ko'zaliqir, Xumbuztepa, Elxaros, Qo'yqirilganqal'a, Govurqal'a 3, amfora, "Xaoma chanog'i" ibodatxonasi.

## **ВЛИЯНИЕ РЕЛИГИИ И КУЛЬТУРЫ НА ПРОЦЕССЫ УРБАНИЗАЦИИ В ДРЕВНЕМ ХОРЕЗМЕ**

**Бахтияров Сирожбек Илхомбек угли**

Университет Маъмуна, доцент (PhD).

### **Аннотация.**

В Древнем Хорезме взаимодействие ряда факторов способствовало формированию городов и развитию процессов урбанизации. Одним из таких факторов являлось развитие религии и культуры. С древнейших времён религиозные и культурные центры Хорезмского оазиса привлекали население и способствовали развитию урбанизационных процессов. Наряду с выполнением религиозных функций такие центры играли важную роль в культурной жизни населения. Вместе с тем на территории городов, особенно приграничных, возводились храмы. Расширение и развитие городов, в свою очередь, оказывало непосредственное влияние на процесс строительства культовых сооружений.

**Ключевые слова:** Кюзели-гыр, Хумбузтепа, Эльхарас, Кой-Крылган-кала, Гяур-кала 3, амфора, храм «Чаша Хаомы».

## **THE INFLUENCE OF RELIGION AND CULTURE ON URBANIZATION PROCESSES IN ANCIENT KHOREZM**

**Baxtiyarov Sirojbek Ilxombek o'g'li**

Mamun University, Associate Professor (PhD).

### **Abstract.**

In ancient Khorezm, the interaction of various factors contributed to the formation of cities and the development of urbanization processes. Among these factors, the development of religion and culture played a significant role. Since ancient times, religious and cultural centers in the Khorezm oasis attracted populations and contributed to the development of urbanization. In addition to their religious functions, these centers also served as important hubs of cultural life. Temples were constructed within cities, particularly in frontier settlements. The expansion and development of cities, in turn, had a direct influence on the construction and development of religious structures.

**Keywords:** Ko'zaliqir, Xumbuztepa, Elxaros, Qo'yqirilganqal'a, Govurqal'a 3, amphora, "Haoma Bowl" temple.

**Kirish.** Qadimgi davlatlarning shakllanish va rivojlanish jarayonlarini o'rganishda urbanizatsiya masalasi markaziy o'rin tutadi. Shahar madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanishida iqtisodiy va siyosiy omillar bilan bir qatorda diniy e'tiqod hamda madaniy an'analarning ham muhim ahamiyatga ega ekanligi arxeologiya fanida keng tan olingan. Qadimgi Xorazm vohasi bu borada o'ziga xos namuna hisoblanadi: mintaqada bir qancha omillarning o'zaro ta'sir ko'rsatishi natijasida shaharlar shakllangan bo'lib, ular orasida diniy e'tiqod va madaniyat markazlarining, xususan, ibodatxonalarning o'rni alohida ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuning o'rganilganlik darajasi.** Qadimgi Xorazm arxeologiyasi va uning diniy-madaniy hayoti S. P. Tolstov, Yu. A. Rapoport, M. A. Itina, E. E. Nerazik, V. N. Yagodin, S. R. Baratov, L. M. Levina, H. Karomatov, N. Egamberdiyeva kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan. Ushbu tadqiqotchilar tomonidan Ko'zaliqir, Tuproqqal'a,

Qo'yqirilganqal'a, Qal'aliqir 1–2 kabi yodgorliklarda olib borilgan qazishma ishlari natijasida muhim ma'lumotlar to'plangan. Shunga qaramay, diniy e'tiqod va madaniyat markazlarining aynan urbanizatsiya jarayoniga ko'rsatgan ta'siri masalasi alohida va yaxlit tarzda tahlil qilinmagan, bu esa mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

**Tadqiqotning maqsadi** qadimgi Xorazm vohasida diniy e'tiqod va madaniyat markazlarining, xususan, ibodatxonalarning shaharlar shakllanishi va urbanizatsiya jarayonlariga ko'rsatgan ta'sirini arxeologik manbalar asosida tahlil qilishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: arxaik va antik davrlarga oid diniy markazlarning qurilish uslublarini aniqlash; markaziy va chekka (chegara) hududlardagi ibodatxonalarning shahar tuzilishidagi o'rnini belgilash; davrlar bo'yicha ibodatxona-saroy munosabatlarining o'zgarishini kuzatish va bu jarayonlarning urbanizatsiyaga ta'sirini ochib berish.

**MATERIALLAR VA METODLAR.** Tadqiqotning manbaviy bazasini qadimgi Xorazm hududida joylashgan Ko'zaliqir, Xumbuztepa, Oqchaxonqal'a, Qo'yqirilganqal'a, Qal'aliqir 1, Qal'aliqir 2, Tuproqqal'a, Toshxirmontepa, Govurqal'a 3, Toshqal'a 2 (Doshqal'a), Elxaros, Jonbosqal'a va Hazorasp kabi arxeologik yodgorliklarda olib borilgan qazishma va razvedka ishlarining nashr etilgan natijalari, shuningdek, S. P. Tolstov, Yu. A. Rapoport, M. A. Itina, E. E. Nerazik, V. N. Yagodin, S. R. Baratov, L. M. Levina, H. Karomatov, N. Egamberdiyeva kabi tadqiqotchilarning ilmiy asarlari tashkil etadi. Tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi: tarixiy-qiyosiy tahlil, xronologik-tipologik tahlil, tizimli yondashuv, arxeologik hisobotlar va manbalarni tanqidiy tahlil qilish usullari.

**NATIJALAR.** Qadimgi Xorazm davlatining aholisi asosan zardushtiylik diniga e'tiqod qilganligi sababli faqat shu din bilan bog'liq maxsus shahar va ibodatxonalar aniqlangan. Butun bir davlat hududi yagona markaz orqali boshqarilgan. Shuning uchun diniy e'tiqod markazlari shunga moslab bunyod etilgan va davlatning markaziy diniy e'tiqod bilan bog'liq yirik shahri qurilgan. Davlatning chekka hududlarida ham, ya'ni markazdan uzoq bo'lgan joylarda ham maxsus diniy e'tiqod bilan bog'liq qal'alar qurilgan. Ularning qurilish uslubi boshqa shaharlarning qurilish uslubidan farq qilgan. Ibodatxonalarning qurilish uslubi davrlar bo'yicha ham farq qilgan. Arxaik davrda ibodatxonalar saroylar bilan uyg'un holda bo'lgan bo'lsa, antik davrga kelib, saroyda alohida qurilgan yoki alohida maxsus diniy e'tiqod markazi bo'lgan shahar bunyod etilgan. Bunday shaharlar markazda va chekka hududlarda ham aniqlangan.

Qadimgi Xorazmda arxaik davrga oid ilk shahar Ko'zaliqirning janubi-g'arbiy qismida 1 gektar hududda qurilgan saroyning ichida va hovlisida ibodat marosimlari o'tkazishga mo'ljallangan joylar qurilgan. Hovlisining o'rtasida baland platforma qurilgan bo'lib, bu yerda muqaddas olov yoqilgan [9, C. 539–540]. Qal'aning shimoliy tomonida qalin devorli, ichki qismi tor, inson sig'a olmaydigan uchta minoradan iborat bino topilgan. Binoning devorlarida olov izlari aniqlangan. Tadqiqotchilar bu binoning nima uchun foydalanilganligini aniqlashmagan bo'lsa-da, bu yerda doimiy olov yonib turgan deb ko'rsatishgan.

Janubiy Xorazm hududidan topilgan Xumbuztepa hunarmandchilik markazidan mil. avv. V–IV asrlarda mavjud bo'lgan zardushtiylik ibodatxonasi topilgan [11, B. 66]. Ibodatxonaning 12×12 metrni tashkil qilgan markaziy zali va uning sharqiy qismida oziq-ovqat ombori aniqlangan. Bu omborda yerga ko'milgan 12 ta xum va xumchalar topilgan bo'lib, ularda turli donlar va oziq-ovqat mahsulotlari saqlangan bo'lishi mumkin. Ibodatxona markazida pishiq g'ishtdan ishlangan 4 ta ustun tagkursisi topilgan.

Ko'zaliqir va Xumbuztepa yodgorliklarida qurilgan ibodatxonalar deyarli bir davrda bunyod etilgan bo'lsa-da, qurilish uslublari jihatidan bir-biridan farqlanadi. Shu bilan birga, hunarmandchilik markazida ibodatxonaning qurilishi va u yerda omborxonaning bo'lishi Xorazm davlati taraqqiyotining o'ziga xos tarzda kechganligini ko'rsatadi.

Qadimgi Xorazm davlati mustaqillikni qo'lga kiritgach, ya'ni mil. avv. IV asrdan boshlab, urbanizatsion jarayon yanada rivojlangan. Bu jarayonda davlat ahamiyatiga molik bo'lgan ibodatxonalar uchun maxsus shahar-qal'alar qurilgan va har bir qurilgan shahar infratuzilmasida ibodatxonalar alohida o'rin tutgan. Bu davrda Elxaros, Qo'yqirilganqal'a, Govurqal'a 3, Shovot Tuproqqal'asi, Qal'aliqir 2 qal'alari davlatning bosh ibodatxonalari vazifalarini ham bajargan. Bu yodgorliklar Xorazm vohasining turli hududlarida bunyod etilgan. Sharqiy Xorazm hududida Qo'yqirilganqal'a, G'arbiy Xorazm hududida Qal'aliqir 2, Govurqal'a 3, Janubiy Xorazmda Elxaros, Toshqal'a 2 qal'alari faqat diniy urf-odat va marosimlarni o'tkazishga mo'ljallangan shaharlar bo'lgan. Oqchaxonqal'a va Tuproqqal'a shaharlarida saroy va ibodatxona yonma-yon qurilgan, ular alohida mudofaa devorlari bilan himoyalangan. Jonbosqal'a, Hazorasp va boshqa shaharlarda aholining ibodat marosimlarini o'tkazishini qulaylashtirish uchun shahar ichida ibodatxonalar qurilgan.

Qadimgi Xorazm davlatining antik davrdagi poytaxt shahri sifatida e'tirof etilayotgan Oqchaxonqal'a shahrida bunyod etilgan ibodatxona o'ziga xos qurilish uslubiga ega bo'lgan. Shahar 56 gektar hududda qurilgan bo'lib, ichki va tashqi shaharga ajratilgan. Ularning har biri va ichki shaharda joylashgan ibodatxona ham alohida mudofaa devorlari bilan o'rab olingan [15, B. 73]. Oqchaxonqal'aning markaziy qismida bosh otashkada, ya'ni muqaddas olov yonib turadigan inshoot topilgan. U juda baland asos, ya'ni platforma ustiga qurilgan. Otashkadaga botish darvozasi tomonidan qiyalab ko'tariluvchi pandus orqali chiqilgan. Bugungi kunda uning 60 metrli pastki supasining maydoni, 4×4 metr diametrli eng yuqori ustki qismi saqlanib qolgan. Qadimda ikki qavatdan iborat, 10 metr balandlikka ega bo'lgan piramidasimon ishlangan monumental bino hisoblangan. Uning ustida mangu, muqaddas olov yonib turgan. Uni uzoqlardan ham ko'rish mumkin bo'lgan. Saroyning darvozasi otashkada tomonga qaratib qurilgan. Xuddi shunday qurilish uslubi Ko'zaliqirda ham kuzatilgan. Saroyning asosiy eshigi otashkadaga qaratilgan.

Oqchaxonqal'a ichki shahrining shimoli-g'arbiy burchagida 43×43 m maydonni egallagan ibodatxona va uning yonida ochiq tarzdagi "100 ustunli zal" topilgan [16, B. 115]. Ibodatxonaning atrofi bo'ylab yo'laklar qurilgan. Yo'lakning ichki devorining bir qismida ikki qator qilib shoh va shahzodalarning portretlari, devorning boshqa qismida ma'budlarning olti metrli tasviri, o'simlik va qushlarning rangli rasmlari aniqlangan. Bu rasmlar mil. avv. II asrga oid. Yo'lakning umumiy uzunligi 240 metr bo'lib, hozirgi kungacha uning 60 metrda tadqiqot ishlari olib borilgan.

Qo'yqirilganqal'a mil. avv. IV–III asrlarda qurilgan vaqtida Xorazm hukmdorlarining sulolaviy xilxonasi sifatida

bunyod etilgan [3, C. 5]. Mil. avv. II asrda hududga bostirib kelgan ko'chmanchi qabilalar tomonidan vayron etilgach, milodiy II asrda qayta tiklangan va milodiy IV asrgacha faoliyat olib borgan. Bu davrda u ibodatxona va rasadxona sifatida faoliyat olib borgan va Xorazm hukmdorlarining muhim diniy markaziga aylangan. Bu yerda Mitra va Anaxitaga bag'ishlangan diniy marosimlar o'tkazilgan. Qo'yqirilganqal'a aylana shaklidagi dafn va astral e'tiqod ibodatxona-qal'asi bo'lgan. Bu yerda aholi istiqomat qilmagan. Ibadatxonaga turli joylardan ziyoratchilar kelgan va o'zi bilan turli hadyalar olib kelgan, qurbonliklar keltirgan. Bu yerda ruhoniylar diniy ibodat va marosimlardan tashqari munajjimlik bilan shug'ullanganlar. Amudaryo suvi toshqini va kamayishi vaqtlarini yulduzlar harakatiga qarab aniqlashgan. Shu bilan birga, Xorazm vohasidagi suv inshootlarini qurish va boshqarishga mas'ul bo'lishgan. Bu esa qal'aning ilm-fan markazi bo'lganligini ham ko'rsatadi. Bu yerda astronomiya, muhandislik, geometriya, matematika kabi fanlar bilan shug'ullanishgan.

Qo'yqirilganqal'aning mudofaasiga alohida e'tibor qaratilgan. U ikki qator mudofaa devori va handaq bilan himoyalangan. Tashqi mudofaa devorining qalinligi 7,2 metr, ichki mudofaa devorining qalinligi 1 metr, balandligi 7 metr bo'lgan [17, B. 104]. Qal'aning mudofaa qobiliyatini mustahkamlash uchun proteyxizma ishlatilgan va qal'aning atrofi chuqur handaq bilan o'rab olingan.

Qal'aliqir 2 yodgorligi mil. avv. IV–II asrlarga oid bo'lib, Janubiy Sariqamish deltasi bo'ylarida bunyod etilgan [4]. Shaharning tarhi to'g'ri uchburchak shaklida bo'lib, qal'aning ichki qismida diametri 24 metr bo'lgan aylana shaklidagi ibodatxona qurilgan. Ibadatxona monumental inshoot bo'lib, u diniy bayramlar va marosimlar o'tkazishga mo'ljallangan [11, C. 114]. Qal'aliqir 2 Xorazm davlatining Dovdon havzasidagi diniy ibodatxona markazi hisoblangan. Tadqiqotchilar fikricha, bu qal'a Qal'aliqir 1 yodgorligi bilan deyarli bir vaqtda bunyod etilgan bo'lishi mumkin. Yodgorlikdan topilgan moddiy buyumlarning aksariyati diniy marosimlarda, xususan, hosildorlik ma'budasi Anaxita sharafiga o'tkaziladigan diniy bayramlarda ishlatiladigan buyumlardan iborat bo'lgan.

Bu yodgorlik qadimgi Xorazmdagi diniy e'tiqodlar va marosimlar to'g'risida atroflicha tasavvur bera oladi. Majmuadan topilgan ritonlar, ikki jo'mrakli ko'zasimon qo'shquloq sopol idishlar (amforalar), qavariq naqshli suvdonlar, dastasida qavariq haykalchalar tasvirlangan xum idishlar, chiroq va otashgohlar e'tiqod marosimlarida qo'llanilgan. Majmuaning shimoli-sharqiy devori to'lqinsimon shaklda ishlangan bo'lib, darvoza yonida ikkita xona bilan tugallanishini olimlar xaoma o'simligining tanasi va boshog'iga o'xshatib, ushbu yodgorlikni "Xaoma chanog'i" ibodatxonasi deb ham nomlashadi [5, B. 271]. Qal'aliqir 2 ibodatxonasiga kirish shimol tomondan bo'lgan. Kirish darvozasi yonida katta otashgoh bo'lib, u yerda doimiy olov yonib turgan. Uning atrofi keng maydon bo'lgan. Tadqiqotchilar fikricha, mazkur katta maydonda xalq ommasi va kohinlar ishtirokida asosiy diniy marosimlar o'tkazilgan. Odamlar devorlar yonida turib, ichkaridan muqaddas olovni olib chiqayotgan kohinlarning e'tiqod va ritual xatti-harakatlarini kuzatgan. Qal'aliqir 2 dan topilgan yozuvlarda ham ko'proq xo'jalik mazmunidagi yozuvlar bo'lgan. Bu ibodatxona xizmati bilan bog'liq yozishmalar ekanligi aniqlangan [4].

Qal'aliqir 2 yodgorligidan 10 km g'arbda Qal'aliqir 1 joylashgan. Bu yodgorlik mil. avv. V asrning oxiri — IV asrning boshlarida ahamoniylar qarorgohi sifatida 70 gektar hududda qurila boshlangan, lekin qurilish yakuniga yetmasdan vayron qilingan. Milodiy II–IV asrlarda qal'a zardushtiylarning dahmasiga, ya'ni ostadonlar qo'yilgan qabristonga aylantirilgan.

Tuproqqal'a shahri Janubiy Xorazm hududida bunyod etilgan Xorazm hukmdorlarining sulolaviy markazi bo'lgan. Qal'a milodiy II asrda 17,5 gektar maydonda qurilgan. Hukmdor saroyi qal'aning shimoli-g'arbiy qismida baland platforma ustida qurilgan. Unga janub va sharqdan tutashtirib olov ibodatxonasi bunyod etilgan [12][7][8]. Tuproqqal'a qadimgi Xorazm davlatining ma'muriy-xo'jalik ishlari boshqarib turiladigan podshoh qarorgohi va diniy ibodatxona vazifasini ham o'tagan.

Toshxirmontepa mil. avv. IV–III — milodiy I asrlarda qadimgi Xorazm davlatining eng yirik diniy markazlaridan biri bo'lgan. Bu yerda ham olov ibodatxonasi qurilgan. Milodiy II–III asrlarda Toshxirmontepa diniy ibodatxona markazi sifatidagi ahamiyatini yo'qotib, aholi tomonidan boshqa xo'jalik maqsadlarida foydalanilgan [16, C. 108].

Sharqiy Xorazm hududidagi Govurqal'a 3 yodgorligi ham aylana shaklidagi ibodatxona bo'lib, bu yerda ham olovga e'tiqod qilingan va ostadonlar topilgan [C. 206–208].

Toshqal'a 2 (Doshqal'a) Xorazm viloyati Hazorasp tumani janubidagi Uch o'choq tepaligining janubi-g'arbidan topilgan. Shahar mil. avv. IV asrda bunyod etilib, faoliyati milodiy VII asrgacha davom etgan [2, C. 25]. Dastlabki tadqiqotlar jarayonida uni qadimgi Xorazmning chegara qal'asi deb ko'rsatishgan. Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar natijasida uning ibodatxona majmuasi ekanligi asoslangan [1, C. 49]. Yodgorlikning o'ziga xos tarhi va konstruksiyasi, darvozaoldi inshooti fortifikatsiyasi, yodgorlikning ichki qismida xo'jalik hayotiga oid moddiy buyumlarning aniqlanmaganligi uning ibodatxona ekanligini ko'rsatgan.

Janubiy Xorazm hududidan topilgan Elxaros yodgorligi mil. avv. IV asrda saroy binosiga ibodatxona uyg'unlashtirilib qurilgan. Uning markaziy binosi yaxshi saqlanib qolgan. Tadqiqotlar jarayonida g'arbiy va sharqiy bino deb ajratilgan holda tadqiq qilingan, lekin bu binolar bir-biri bilan bog'langan bo'lgan. Bino xochsimon tarzda bunyod qilingan [6, C. 525–526]. Elxaros Amudaryoga yaqin bo'lgan tabiiy tepalik ustiga qurilganligi sababli uzoq vaqt faoliyat olib bormagan. Tadqiqotchilar fikricha, bir necha o'n yil mavjud bo'lgan, keyinchalik suv toshqini natijasida vayron bo'lgan. Keyingi davrlarda ham uning ma'lum bir qismida aholi istiqomat qilgan, lekin yodgorlik oldingi darajadagi maqomga ega bo'lmagan.

Sharqiy Xorazmning chegara hududida 3,5 gektar maydonda qurilgan Jonbosqal'a shahri to'g'ri to'rtburchak shaklida bunyod etilgan bo'lib, mustahkam mudofaa devoriga ega bo'lgan. Qal'a mudofaa devorining balandligi 2–10 metr, qalinligi 5 metr bo'lib, ikki qavat qilib qurilgan. Devorlar o'rtasidagi oraliq 2,8 metrni tashkil qilgan. Mudofaa devorida burj qurilmagan, faqat shaxmat tartibida ishlangan ikki qator nayzasimon shinaklar bo'lgan. Qal'aga bitta



darvoza orqali kirilgan, darvoza murakkab darvozaoldi inshooti bilan himoyalangan. Shahar darvozasining qarama-qarshi tomoniga 30 metr kenglikda ko'cha o'tgan va bu ko'cha shaharni ikki qismga ajratgan [11, C. 88–98]. Ko'cha oxirida 4,5 metr balandlik ustida ibodatxona qurilgan. Ibodatxonaning bir xonasida muqaddas olov yonib turgan. Uni tadqiqotchilar "Olov uyi" deb nomlagan. Olov uyining devorlari bo'ylab 40 santimetr balandlikda, eni kichik bo'lgan g'ishtdan supa ishlangan. Bu supalar olov atrofida odamlarning o'tirishi uchun mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Bu ibodatxonaga Jonbosqal'a atrofidagi qishloqlarda yashovchi aholi ham kelgan bo'lishi mumkin.

**MUHOKAMA.** Tadqiqot natijalari qadimgi Xorazmda diniy e'tiqod markazlarining urbanizatsiya jarayoniga bir necha yo'nalishda ta'sir ko'rsatganligini ko'rsatadi.

Birinchidan, ibodatxonalarining qurilish uslubi davrlar bo'yicha o'zgarib borgan. Arxaik davrda (Ko'zaliqir, Xumbuztepa misolida) ibodat marosimlari saroy majmuasi ichida, undan ajralmagan holda o'tkazilgan. Mil. avv. IV asrdan, ya'ni davlat mustaqillikka erishgach boshlangan antik davrda esa ibodatxonalar mustaqil me'moriy inshootlar sifatida yoxud alohida diniy-marosim shaharlari (Qo'yqirilganqal'a, Qal'aliqir 2 kabi) sifatida qad ko'targan. Bu o'zgarish davlat boshqaruv tizimining markazlashuvi va diniy institutning nisbatan mustaqil ijtimoiy kuchga aylanishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

Ikkinchidan, diniy markazlarning geografik joylashuvida ham tizimlilik kuzatiladi: markaziy poytaxt shaharlarida (Oqchaxonqal'a, Tuproqqal'a) davlat ahamiyatiga molik bosh ibodatxonalar qurilgan bo'lsa, vohaning chekka-chegara hududlarida (Jonbosqal'a, Toshqal'a 2, Elxaros, Govurqal'a 3) ham mustaqil ibodatxona-qal'alar bunyod etilgan. Bu esa diniy e'tiqodning nafaqat markazda, balki butun voha bo'ylab aholini birlashtiruvchi omil sifatida xizmat qilganligini, chegara hududlarida esa qo'shimcha ravishda mudofaa vazifasini ham bajarganligini ko'rsatadi.

Uchinchidan, muqaddas olovga (otashkada) e'tiqod barcha davr va hududlardagi yodgorliklar uchun umumiy va bog'lovchi unsur bo'lib xizmat qilgan — bu Ko'zaliqir, Oqchaxonqal'a, Qal'aliqir 2, Govurqal'a 3, Toshxirmontepa, Jonbosqal'a kabi turli davr va joylashuvga ega yodgorliklarning barchasida kuzatiladi. Bu holat zardushtiylik diniy g'oyalarining Xorazm hukmdorlik mafkurasi bilan chambarchas bog'liq bo'lganligidan dalolat beradi.

To'rtinchidan, ba'zi diniy markazlar nafaqat ibodat, balki ilm-fan va boshqaruv markazi vazifasini ham bajargan — Qo'yqirilganqal'a misolida koinlarning munajjimlik, astronomiya, muhandislik bilan shug'ullanganligi, suv inshootlarini boshqarganligi buning yaqqol dalilidir. Bu esa diniy markazlarning aholi uchun nafaqat marosim, balki ijtimoiy-madaniy jihatdan jalb qiluvchi kuch bo'lganligini, shu tariqa ularning atrofida aholining to'planishi va shaharlarning kengayishiga hissa qo'shganligini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, shaharlarning kengayib borishi, o'z navbatida, yangi ibodatxonalar qurilishini taqozo etgan — bu ikki jarayonning o'zaro ta'sirini, ya'ni diniy-madaniy omil bilan urbanizatsiyaning bir-birini rivojlantiruvchi tarzda kechganligini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, qadimgi Xorazm davlatining chegara qal'alari va boshqa qal'a-shaharlarining aksariyatida ibodatxonalar bunyod etilgan bo'lib, bu tamoyil me'morchilikning barcha davrlariga xos bo'lgan. Diniy e'tiqod markazlari davlatning diniy-mafkuraviy tayanchi vazifasini bajargan va zardushtiylik dini g'oyalariga asoslangan holda aholini o'ziga jalb etib, shaharlarning shakllanishi va rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Diniy e'tiqod va madaniyat markazlarining shahar hayotidagi bunday markaziy o'rni qadimgi Xorazm urbanizatsiya jarayonining o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida baholanishi lozim. Mavzuni yanada chuqur o'rganish istiqbolda yangi arxeologik qazishma natijalari asosida diniy markazlarning iqtisodiy va ijtimoiy funksiyalarini alohida tahlil qilishni taqozo etadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Баратов С. Р. Археологические исследования на юге Хорезма в 2004–2005 годах // *Археологические исследования в Узбекистане в 2004–2005 годы*. – Вып. 5. – С. 27–59.
2. Итина М. А. Археологические памятники на древних торговых путях вдоль берегов Амударьи // *Древности Южного Хорезма*. – С. 25.
3. Кой-Крылган-кала — памятник культуры древнего Хорезма IV в. до н. э. – IV в. н. э. – Москва, 1967. – С. 5.
4. Калалы-гыр-2. Культурный центр в Древнем Хорезме IV–II вв. до н. э. Москва: Восточная литература, 2004. 286 с.
5. Karomatov H. *O'zbekistonda moziy e'tiqodlar tarixi*. – Toshkent, 2008. – B. 271.
6. Левина Л. М. Раскопки на поселении Элхарас // *Археологические открытия*. – Москва, 1975. – С. 525–526.
7. Неразик Е. Е. Раскопки городища Топраккала // *Краткие сообщения Института археологии АН СССР*. – 1972. – № 132. – Москва. – С. 23.
8. Рапопорт Ю. А., Гертман А. Н. Работы на Топраккале // *Археологические открытия 1976 года*. – Москва: Наука, 1977. – С. 539–540.
9. Рапопорт Ю. А. Хорезм в древности // Рапопорт Ю. А., Неразик Е. Е., Левина Л. М. *В низовьях Окса и Яксарта. Образы древнего Приаралья*. – Москва: Индрик, 2000. – С. 26–27.
10. Setmamatov M. B. va boshq. Xumbuztepa – Janubiy Xorazmning kulolchilik va diniy-mafkuraviy markazi // *Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi*. – 2014. – № 4. – Samarqand. – B. 66.
11. Толстов С. П. *Древний Хорезм. Опыт историко-археологического исследования*. – Москва: МГУ, 1948. – 352 с.
12. Толстов С. П. *По древним дельтам Окса и Яксарта*. – Москва: Наука, 1962. – 324 с.
13. *Топрак-Кала-Дворец. ТХАЭЭ*. – Т. XIV. – Москва: Наука, 1984. – 304 с.
14. Xodjanilyazov G'. *Qadimgi Xorazm mudofaa inshootlari*. – Toshkent: O'zbekiston, 2007. – 216 b.
15. Yagodin V. M., Betts A. Xorazmning noma'lum hukmdorlari // *Fan va turmush*. – 2008. – № 3–5. – B. 115–117.
16. Ягодин В. Н., Беттс Г. Ташкырманский древний оазис: Казаклы-яткан, Ташкырман-тепе // *Тезисы докладов Международного симпозиума «Приаралье на перекрестке культур»*. – Нукус – Бустан – Беруний, 2007. – С. 108.
17. Egamberdiyeva N. *Arxeologiya*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2011. – B. 111.